



ShAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA TABIAT VA INSON TALQINI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18032023>

Ruziboev Tolibjon Xolmatjonovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY” NOTM

“O'zbek va rus tillari ” kafedrasi dotsenti v.b.

ABSTRAKT. Ushbu maqolada Shavkat Rahmon she'riyatidagi peyzaj bilan bog'liq badiiy obrazlarning qo'llanilishi, badiiy-estetik vazifalari tahlil etilgan. Unda shoir she'riyatida keng qo'llanilgan badiiy obrazlar tadqiq etilib, shoir ijodida mazkur obrazlarga yangi ma'no va mazmun yuklanganligi yoritib berilgan. Maqola Shavkat Rahmon she'riyatining dunyoviy va ijtimoiy mohiyatini chuqurroq anglash va tushunishga imkon yaratgan.

KALIT SO'ZLAR: *she'r, adabiy janr, his-tuyg'u va kechinma, lirik qahramon, badiiylik, badiiy tasvir, ifoda, obrazlilik, ramz, assotsiatsiya.*

KIRISH

O'zbek she'riyatida, jumladan, Shavkat Rahmon ijodida tabiat tasviri bilan bog'liq poetik obrazlar talqini ko'p uchraydi. Shoirning “Manovi qora tosh”, “Yosh tog'lar”, “Suvlar ila muloqot”, “Amudaryo qirg'oqlari”, “Xorazm qishloqlari”, “Oftob va oftob nurlari haqida afsona”, “Aravon ko'rinishlari” “Tor ko'chalarda”, “Qizilqumda bir kun”, “Chinor suvrati”, “Tabiat” va boshqa bir qator she'rlarini bunga misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Shavkat Rahmonning peyzaj lirikasida ramziy ma'noda qo'llangan ko'plab an'anaviy obrazlarni uchratish mumkin. Ular mohiyatiga shoirning ijtimoiy-siyosiy, badiiy-estetik va falsafiy-axloqiy qarashlari ustalik bilan singdirib yuborilgan. “She'r ahli borki, ona-tabiatdan ilhom oladi. Shu bois peyzaj

tasvirida betakrorlikka intilmagan ijodkorni topish mahol”.¹⁹ Shavkat Rahmon ham ana shunday ijod ahllarining biridir. U tabiat manzaralarini sinchiklab kuzatish, ularning zamiridagi sir-asrorlarni ilg'ash orqali hayot hodisalari mohiyatini yanada teranroq anglaydi va tabiatning xilma-xil betakror va go'zal lavhalarini mahorat bilan chizadi. Shoirning bunday she'rlaridagi peyzaj tasviri asar mazmuniga singdirilgan g'oyani badiiy ifodalash, lirik qahramon ruhiy kechinmalarini teranroq ochib berishga imkon beraadi.

ASOSIY QISM

Shavkat Rahmonning lirik qahramoni tabiat farzandi sifatida gavdalanadi. U tabiat bag'rida dunyoga keladi, yashaydi, o'sib ulg'ayadi, borliqni

¹⁹ Жабборов Нурбой. Замон, макон, шеърият. – Тошкент: Фафур Гулом, 2015. – Б. 224.



taniydi, o'zligini angelaydi va oxir-oqibat yana shu ona-tabiati bag'riga singib ketadi. Tabiatning betakror manzaralari uni befarq qoldirmaydi. O'ziga rom etib, goh hayratlantirsa, goh zavqqa to'ldirib, goh hazin xayollar girdobiga tashlaydi. Turfa manzaralardan jo'shgan histuyg'ulari qog'ozga to'kiladi.

Ma'lumki, "...she'riyatda uzoq asrlar davom etib kelgan yil fasllari tasviri bilan bog'liq an'analar mavjud bo'lib, shoirlarimiz ijodida bahor, yoz, kuz, qish tasviriga maxsus she'rlar yaratilgan. Yil fasllari shoirlarimiz uchun tabiat ko'rki-jamolini tasvirlash bilan bir qatorda inson ruhiy olamini yoritish, muayyan ijtimoiy muammoni aks ettirishda vosita rolini o'tagan".²⁰ Shavkat Rahmonning bahor fasli tasviriga bag'ishlangan "Tabiat" she'ri shunday boshlanadi:

Tabiat –
qo'li gul hunarmand,
Tabiat –
ming hunar sohibi –
muz eritib, tog' toshlariga
tongga kadar lola qoqibdi.

Bir kechada bor daraxtlarga
kiydiribdi yashil liboslar,
uyg'otibdi yosh jilg'alarni,
qushchalarning ovozin sozlab.
To'rt raqqosa –
Po'yrozu Dabur,
Samum, Sabo – bodin o'ynatib,
jismi asal, ishqdan qorilgan

buvaklarni o'pib so'ylatdi...²¹

Yuqoridagi misralarda shoir metaforik ifodalar yordamida bahorgi tabiat manzarasini yaratgan. Ma'lumki, "Badiiy obrazning metaforiklik bilan chambarchas bog'liq yana bir muhim xususiyati assotsiativlik hisoblanadi"²² Shavkat Rahmon bu she'rda garchi bahor so'zini ishlatmagan bo'lsa-da, bahor fasliga xos tushunchalar asosida assotsiativ fikrlashi: *muzlarning erishi, tog'lardagi lolalar, daraxtlarning yashil libos kiyishi, yosh jilg'alarning uyg'onishi, qushchalarning ovozi sozlanishi, shamollarning esishi, asalarilar g'uwillashi* tufayli o'quvchining ko'z o'ngida bahoriy tabiatning betakror manzarasi namoyon bo'ladi.

She'rda tabiatdagi o'zgarishlar mavzusi ifodalangan, lekin shoirning badiiy-estetik maqsadi faqat shu bilan cheklanib qolmagan. Zero, "Peyzaj – shoir uchun hayot falsafasiga doir konseptual qarashlarini, lirik kechinmalarini ifodalash uchun badiiy-estetik vosita".²³ Shoir tabiat o'zgarishlarida Allohning betakror yaratuvchilik qudrati namoyon bo'lishini tasvirlar ekan, inson uning nazdida naqadar ojizligini ko'rsatib berishni maqsad qiladi. Shoir nazarida tabiat oddiy mavjudot emas, balki ilohiy irodani namoyon etayotgan hunarmand, ijodkor

²¹ Раҳмон, Шавкат. Гуллаётган тош. Шеърлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985. – Б. 57-58.

²² Qur'onov Dilmurod. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – B. 95.

²³ Жабборов Н. Олтинчи кун яшаш орзуси.// <https://t.me/nurboyjabborov>

²⁰ Yoqubova Sevinchoy. Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri.// Uzbekistan: Language and Culture. 2022/2(2). – B. 42-53



kuchdir. Bu o‘rinda she‘rning badiiy-estetik ta‘sirini oshirish uchun tabiatni antropomorfik obrazda, ya‘ni insonga xos sifatlar bilan tasvirlanadi. U muzni eritadi, tog‘- toshlarga “lola qoqadi”, daraxtlarga “yashil libos” kiydiradi. Bu tasvirlarda tabiatdagi har bir jarayon badiiy ijod sifatida talqin etiladi. Tabiat dinamik va jonli manzaralarga boy harakatda tasvirlanadi. Bu ifodalarning har biri tabiatni tirik organizm sifatida ko‘rsatadi. Manzaralar turg‘un emas, balki uzluksiz jarayon, hayot oqimi tarzida yoritiladi. Shoir talqinida tabiatdagi har bir narsa, voqea-hodisa obrazga aylanadi. “To‘rt raqqosa – Po‘yroz, Dabur, Samum, Sabo” – shamollar bo‘lib, raqqosalarga qiyoslanadi va olam harakati estetiklashtiriladi. Tabiat ular yordamida hayotni uyg‘otadi, jismi asal, ishqdan qorilgan buvaklar – asalarilarni o‘pib so‘ylatadi, ya‘ni jonlantiradi. Bu tasvirda tabiat qudrati mifologik-ramziy vositalar orqali ochib beriladi.

She‘rning birinchi qismida tabiatning bahoriy o‘zgarishlaridan zavqlangan lirik qahramon kayfiyati yoritilgan bo‘lsa, ikkinchi qismida uning tabiatga munosabati masalalari ochib beriladi. Hayotda shunday insonlar uchraydiki, arzimagan ishlari bilan minbarlarga chiqib maqtanishni, kerilishni, o‘zini eng bilimdon, eng kuchli qilib ko‘rsatishni xush ko‘radi, lekin ilohiy hukmga bo‘yinsunib, oylab, tunu kun zahmat chekib, shuncha ishlarni qilib qo‘ygan tabiat aslo kerilmaydi. Muallif

tabiatni qudratli kuch egasi bo‘lsa-da, o‘ta kamtar qilib tasvirlaydi:

Tabiat —
qo‘li gul hunarmand,
saharlarda ishlar berilib,
oylab orom bilmasa hamki,
minbarlarga chiqmas kerilib...

Bu misralar mazmunidan tabiatning tinimsiz hahmat cheksa-da, daholik da‘vo qilmasdan, ulkan natijalarga erishishi anglashiladi. Tabiat o‘z mehnati bilan gapiradi, u maqtanishga yoki maqtalishga muhtoj emas. U mohir – zargar, uning ustaxonasi – butun borliq. Uning harakatlarida soxtalik, shoshma-shosharlik yo‘q; usta zargar sifatida o‘ta nozik, aniq va sabr-bardosh bilan ishlaydi. “Bolarilar yasashi” hayotning eng mukammal shakllaridan birining yaralishi ramzidir.

Ko‘zim tushdi,
korxonasida
bir zargarday azoblanardi,
bolarilar yasardi, borliq
uyg‘unligin rasolar edi...

Shoir fikricha, “bolari yasalishi”da va ularning hayot tarzida tabiatdagi uyg‘unlik, butun borliqdagi o‘ziga xos tartib-intizom mujassamdir. She‘r davomida inson ulug‘lik uchun qanchalik da‘vogar, buzg‘unchi va “qudratli” bo‘lmasin, tabiat timsolidagi ilohiy yaratuvchilikni takrorlay olmasligini ta‘kidlaydi. Bu fikr asarning asosiy g‘oyaviy yukini anglatadi. Shu tariqa she‘rning ikkinchi qismida o‘quvchi lirik qahramonning yangi sifatlari bilan tanishadi. U o‘zini “yetti iqlim sultoni”, ya‘ni tabiatning hukmdori deb tasavvur



qiladi. Ammo uning faoliyati “xarsanglarni qo‘porish”, “o‘rmonlarni kesish”, “daryolarni yo‘qotish” kabi buzg‘unchilik harakatlari bilan ifodalanadi. Bu o‘rinda tabiat va inson ziddiyati yuzaga chiqadi:

Bir daqiqa
kuzatdim kulib,
men kim – yetti iqlim sultoni,
ishchan qarol – go‘l Tabiatday
hayron qilib qo‘yay dunyoni.

Zumda yiqdim qo‘poruvchiday
xarsanglarni ildizi bilan,
o‘rmonlarni kesdim erinmay,
daryolar ham chiqdi izidan...

Yuqoridagi misralarda inson vayron qiluvchi kuch sifatida namoyon bo‘lgan. Shoir bu misralar zamiriga insonning tabiatga munosabatidagi achchiq haqiqatni singdirib yuborgan.

Ishga tushdim ustaxonada,

ayon bo‘ldi mehnat sirlari.

Ammo ming yil ishlasam hamki,
yasolmadim bir tirik ari...

XULOSA

Mazkur she‘rda shoirning g‘oyaviy xulosasi va she‘rning falsafiy yakuniy nuqtasi sifatida inson erishayotgan barcha ilmiy-texnik taraqqiyotga qaramasdan, Yaratuvchi nazdida o‘ta ojiz ekanini ramziy tarzda ifoda etiladi. Ari – kichik, ammo mukammal jonzot. Uni yarata olmaslik insonning bilim, imkoniyatlari chegaralanganligini belgilab beradi. Ushbu she‘rda Shavkat Rahmonning o‘ziga xos falsafiy qarashlari: tabiat ilohiy irodaga bo‘yinsungan yaratuvchi, hunarmand, kamtar ustoz, hayot manbai ekanligi, inson esa tabiatga qarshi chiqqan sari uni tushunishdan uzoqlashishi ta‘kidlangan. Asar o‘quvchini tabiyatga ehtirom, mas‘uliyat va kamtarlikka chorlaydi.

АДАБИЁТЛАР:

1. Жабборов Нурбой. Замон, макон, шеърят. – Тошкент: Гафур Гулом, 2015. – Б. 224.
2. Жабборов Н. Олтинчи кун яшаш орзуси.// <https://t.me/nurboyjabborov>
3. Раҳмон, Шавкат. Гуллаётган тош. Шеърлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985. – Б. 57-58.
4. Yoqubova Sevinchoy. Jadid she‘riyatida peyzaj bilan bog‘liq poetik obrazlar tasviri.// Uzbekistan: Language and Culture. 2022/2(2). – Б. 42-53
5. Quronov Dilmurod. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – Б. 95.
6. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=za_tCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:roLk4NBRz8UC
7. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=za_tCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:qjMakFHDy7sC



8. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:UeHWp8X0CEIC
10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
11. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Se3iqnhoufwC